

## ONA TILI DARSLIKLARIDAGI AMALIY MASHQLARDA GAP BO'LAKLARI TAHLILI

Turdiqulova Kumushoy Mahmudovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14053909>

**Annotatsiya:** Berilgan ilmiy ishda maktab darsliklaridagi amaliy mashg'ulotlar qay tarzda o'tkazish to'g'risida aniq va to'g'ri ma'lumotlar bilan tanishishga harakat qilindi. Ishda maktab o'qituvchilari va o'quvchilar uchun kerakli bo'lgan, ular uchun muomolar tug'dirgan masalalarga misollar yordamida yechim topiladi. Maktab o'qituvchilari mashqlarni tahlil qilish jarayonida morfologik tahlil bilan sintaksis tahlilni almashib yuborishi kuzatilmoqda, shu sababdan bu mavzu tanlandi. O'quvchilar amaliy mashqlar orqali gap bo'laklarini tushinish haqida bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

**Kalit so'zlar:** amaliy mashqlar, darslik, bosh darajali bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, egali gaplar, egasi yashiringan gaplar, egasi noma'lum gaplar, egasi umumlashgan gaplar ajratilgan bo'lak, so'z gaplar.

### KIRISH

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgan Yangi O'zbekistonimizni tarannum etishga ona tilimizning o'rni beqiyos va katta hissa qo'shmoqda.

O'zbek tilshunosligida milliy tilning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari turli aspektarda o'rganilgan. Tilshunoslik fanining asosiy muomalaridan biri bo'lgan gap bo'laklari, ularning lingvistik tabiati gapning bo'laklarga ajratilishi, gaplarni bo'laklarga ajratish tamoyillari masalalari ham tilshunoslikdagi asosiy masalalardan biriga aylangan.

O'zbek tilshunosligida sintaksis tahlil ma'lum bosqichlarida o'tkazilayotgan bo'lsa-da, bu masala, ayniqsa, umumta'lim maktablarining ona tili darslarida ko'plab amalga oshirilishini kuzatish mumkin. Gaplarni sintaksis tahlilini paydo bo'lishi va alohida gap bo'laklari tahlili sifatida tahlil etilishini aniqlash, o'zbek tilshunoslik fanining rivojlanib borishi bilan gaplarni bo'laklarga ajratish prinsiplarini ochib berish, ularni amalda qo'llash, gap bo'laklarining gapdagi vazifasini belgilash yuzasidan aniq xulosaga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

"Gap bo'laklari" tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko'rsatdi. Xususan, Omontillayevni "Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap bo'laklari tipalogiyasi"da qo'llanmasida o'quvchilar sintaksis haqida qay tarzda o'rganish va ularni amalda qo'llash mumkin bo'lishi va bu ma'lumotlar qanday jarayonlarda ishlatilishi haqida ma'lumotlar beriladi [210-b.], M. Mirtojeyevning "Gap bo'laklarda semantik-sintaktik nomutanosiblik"da gaplarni bosh darajali bo'laklari va ikkinchi darajali bo'laklar nima vazifani bajaradi va ular qanday ahamiyatga ega ekanligini, sodda yoyiq va sodda yigiq gaplarni farqli taraflari mashqlar yordamida tushuntiriladi.[202-b], Asqarova, Qosimova "5- sinf darsligi" da bu mavzuni yani sintaksis bo'limini morfologiya bo'limidan farqlash usullari tushirib berildi [190-b].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

"5- sinf ona tili darsligida" berilgan mashqlar maktab o'quvchilarida gap bo'laklari ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Maktab darsliklarida ona tili darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat

bildirish, gapda harakatni bajaruvchisi va bajarilgan ish harakatni to'g'ri anglashga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, ona tili fan o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. Til grammatikasini bilish ham o'quvchilarni yozma va nutq madaniyatini to'g'ri bo'lishiga yordam beradi.

O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quv-bilish faolligi darajasini, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. Ona tili darslarida matni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Gapning bosh darajali bo'laklariga oid "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da "Ona tili" darslari oldiga qo'yiladigan didaktik talablar o'quvchilar e'tibori nimani o'rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.

Darslikda berilgan mashqlar orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi.

Gap bo'laklarini o'rgatishda pedagogik mahorat va qo'llangan metodlar juda muhimdir. Shunday metodlardan bir nechtasini keltiramiz: " Rasmlar raqsga tushadi", " Yarim tuxum", " Raqamlar o'ynaydi" , "Tabiat manzarasi", " Soroqlarni yod olish" kabi o'yinlardan foydalanish yaxshi samarani qo'lga kiritishimizga sabab bo'ladi.

**Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarni qo'llash vositasida** o'quvchilarda faol harakat va qiziqish uyg'otiladi. Ta'lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog'liq. Dars jarayonidagi o'yinlar esa bu muhitni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. O'yinlar guruhlarda ishlab mashq qilishga odatlantiradi va uncha ko'p vaqtni olmaydi. Jamoaviy ishlash davomida o'quvchilar faolligi oshadi va darsga nisbatan diqqat-e'tibori kuchayadi. O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilim berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruh a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiradi. O'yinlarni asosan darsning kirish yoki yakuniy qismida o'tkazish maqsadga muvofiqligi qo'llanmalardan ma'lum. O'yinlarni maqsadiga binoan turlarga ajratish mumkin:

**«So'roqlarni yod oling» o'yini.** Bu o'yinda o'quvchilar o'tilgan mavzu yuzasidan har biri bittadan ma'lumot aytadi so'ng o'qituvchi kim eslab qolganligini bilish maqsadida o'quvchiladan sinfdagi qaysi o'quvchi qanday ma'lumot aytganini eslab qoladi. Masalan Laylo ismli o'quvchida Malika, Laziza, Ko'zim, kabi sinfdoshlari o'tilgan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlar aytganini so'raymiz va barcha ma'lumotlarni o'quvchilar eslab qoladi. Ona tili darslarida bu o'yindan foydalanish gap tuzish va bosh darajali bo'laklarni aniqlashda qo'llashimiz mumkin." Men qaysi bo'lakman" metodik o'yinida esa o'quvchilar har bir bo'lakni tez aniqlab olish hususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, ularni kichik guruhlariga bo'lib olamiz va 5 donadan gap tushishini aytamiz ular 3 minut davomida gap tuzadilar va ularni gaplarini boshqa guruhlar bilan almashtiramiz 5 ta o'quvchini doskaga chiqamiz ularga gapning har bir bo'lagini nomini beramiz.

Gaplarni o'qituvchisi o'qib turadi o'quvchilar berilgan gap bo'lagi nomi bilan o'z ketma ketligini egallaydi.

*Masalan sinfda 20 ta o'quvchi mavjud ularni 5 tadan qilib 5 ta guruhga ajratamiz va bosh qog'oz tarqatamiz uch daqiqa vaqt beramiz ular yozib bo'lgach varoqlarni soat strelkasi bo'ylab almashtirishimiz kerak bo'ladi. 1- guruh 2- guruhga 2-3 3-4 - guruhlarga 5-guruh esa 1- guruhga beradi. Har bir guruh o'quvchilarini navbatma navbat chiqaramiz guruh qatnashchilariga ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol deb nom beramiz va hech biri gapirmaslikni aytamiz. O'qituvchisi gapni o'qiydi bo'laklar oz joylarini egallashi kerak. Masalan, Bugun men yaqin do'stinga gul olib keldim. Charos- hol, Behruz- ega, Laziza- aniqlovchi, Ibrahim-to'ldiruvchi, Zarina- kesim ular o'z o'rnini egallashlari kerak bo'ladi. Charos Behruz Laziza Ibrahim Zarina. Agar shunday egallashlari to'g'ri bo'ladi va belgilangan balni qo'lga kiritadi. O'yin shu tarzda davom etadi.*

*Bu ikki o'yin orqali o'quvchilar ham nazariy ham amaliy bilimga ega bo'lishadi. Bundan tashqari sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirok etadi. Harakatli o'yinlar bilan o'quvchilar majburiy-ixtiyoriy mavzu bo'yicha kerakli bilimlarni o'zlashtirishga muvofiq bo'ladi.*

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Qisqa qilib aytganda, bugungi har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoa hoida ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yakunida, bugungi zamonaviy metodlar bugungi ta'lim tizimidagi yangi istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda. O'quvchi-talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga undovchi, biror bir mavzu haqidagi bilimlarni atroflicha egallash va tushunchalar hosil qilishda kattagina ahamiyat kasb etadi.

### **References:**

1. I. Ermatov, N. Mahkamov "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"- Toshkent fan- 144-bet
2. Berdialiyev. A. O'zbek tili sintaksisi. Oliy o'quv yurtlari bakalavr va magistrarlari uchun qo'llanma.- Xo'jand Rahim Jalil- 2014-170b
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi- Toshkent - 2017- 6 b
4. O'zbek tili grammatikasi II tom.- Toshkent 1976- 504 bet
5. G'affarova, Shodmonov, G'ulomova Ona tili darsligi. Toshkent 2018- 45
6. Mahmud.N, Sobirov .A, Nurmonov.A, Nabiyeva.D Ona tili darsligi 6- sinf. Toshkent 2006- 48 b
7. 7.A.G'ulomov, Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili Sintaksis" - Toshkent. O'qituvchi -1987-256- bet.
8. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.
9. Мусурманова, О., Палуанова, Х., Рискулова, К., & Курбаниязова, З. (2019). Педагогик атамалар луғати: ўзбек, рус, инглиз тилларида. Т.:“TURON\_IQBOL.

10. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. *Science and innovation*, 2(B1), 49-59.
11. Мусурманова, А. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. *Проблемы педагогики*, (1 (40)), 5-7.
12. Musurmanova, A. (2018). Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child *The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158)*, 1(47), 70-72.
13. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. *Проблемы педагогики*, (1 (33)), 5-7.